

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

Ro‘yxatga olindi:

№ _____

« _____ » _____ 2019 yil

“Tasdiqlayman” Universitet rektori

« _____ » _____ 2019 yil

MUTAXASSISLIK FANLARIDAN DAVLAT ATTESTATSIYASI SINOVI
DASTURI

**«Geografiya o‘qitish metodikasi» , «Meteriklar va okeanlar tabiiy geografiyasi»
va «Jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi» fanlari**

**Ta’lim yo‘nalishi: 5110500 – Geografiya o‘qitish metodikasi
bakalavriat ta’lim yo‘nalishi uchun**

QARSHI – 2019

Dastur Qarshi davlat universiteti Kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan. (2019 yil _____-sonli majlis bayoni).

Tuzuvchilar: QarDU "Geografiya" kafedrası mudiri, g.f.n., P.R.Qurbonov
QarDU "Geografiya" kafedrası o'qituvchisi H.I.Muqumova
QarDU "Geografiya" kafedrası katta o'qituvchisi B.Ch.Murtazayev
QarDU "Geografiya" kafedrası katta o'qituvchisi, PhD M.A.Fayzullayev

Taqrizchilar: JDPI "Geografiya o'qitish metodikasi" kafedrası mudiri, g.f.n., dotsent O.Muxamedov
QDU "Pedagogika" kafedrası mudiri, p.f.n., dotsent A.Soxibov

Fanning ishchi o'quv dasturi Geografiya kafedrasining 2019 yil _____ - _____
№ _____ - sonli yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet uslubiy komissiyasiga muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: P.R.Qurbonov

Fanning ishchi o'quv dasturi Tabiiy fanlar fakulteti uslubiy komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilgan va tavsiya etilgan.

Fakultet UK raisi: I. Hayitov

Fanning ishchi o'quv dasturi Tabiiy fanlar fakulteti ilmiy kengashining 2019 yil _____ - _____
№ _____ -sonli yig'ilishida tasdiqlangan va foydalanishga tavsiya etilgan.

Fakultet kengashi raisi: B.Boysunov

Fanning ishchi o'quv dasturi Qarshi DU uslubiy kengashining 2019 yil _____ - _____
№ _____ - sonli yig'ilishida tasdiqlangan.

O'quv uslubiy boshqarma boshlig'i: M.Fayzullayev

I. Kirish

Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirining 2009 yil 22 maydagi “Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi toʻgʻrisida”gi Nizomni tasdiqlash haqidagi 160-sonli buyrugʻiga muvofiq ushbu dastur ishlab chiqilgan.

“5110500 – Geografiya oʻqitish metodikasi” bakalavriat taʼlim yoʻnalishi uchun mutaxassislik fanlaridan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi dasturi, mazkur taʼlim yoʻnalishi uchun 2015 yil 21-avgustda Oʻzbekiston respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi tomonidan tasdiqlangan oʻquv rejasining mutaxassislik fanlar blokidagi «Geografiya oʻqitish metodikasi», «Meteriklar va okeanlar tabiiy geografiyasi» va «Jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi» (Oʻzbekiston respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining 22.01.2016 yildagi 26- sonli buyrugʻining 2-ilovasi bilan tasdiqlangan) fan dasturlari asosida tuzilgan boʻlib, bitiruvchi kurs talabalarining amaliy koʻnikma va malakalarini aniqlash uchun moʻljallangan. “5110500 – Geografiya oʻqitish metodikasi” taʼlim yoʻnalishi mutaxassislik fanlaridan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi mutaxassislik («Geografiya oʻqitish metodikasi» , «Meteriklar va okeanlar tabiiy geografiyasi» va «Jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi») fanlariga muvofiq davlat taʼlim standarti va malaka talablarida belgilangan zaruriy mazmunidan kelib chiqqan holda oʻquv fanlari dasturida nazarda tutilgan materiallarni talabalar tomonidan oʻzlashtirilganlik darajasini aniqlashga yoʻnaltirilgan. Bitiruvchi kurs talabalar tomonidan bajariladigan sinov ishlari quyida belgilangan mezon asosida baholanadi.

II. Mutaxassislik fanlaridan davlat attestatsiyasi sinoviga qoʻyiladigan malaka talablar.

“5110500 – Geografiya oʻqitish metodikasi” bakalavriat taʼlim yoʻnalishi boʻyicha fanlardan yakuniy attestatsiya sinovi ayrim fanlar mazmuniga qoʻyiladigan talablar bilan bir qatorda, talaba tayyorgarligining mazkur yoʻnalish boʻyicha davlat taʼlim standartida bitiruvchiga nisbatan nazarda tutilgan umumiy talablarga ham javob bera olish darajasini, koʻnikma va malakalarini aniqlash maqsadida oʻtkaziladi.

“5110500 – Geografiya oʻqitish metodikasi” taʼlim yoʻnalishi bitiruvchi kurs talabalarining mutaxassislik fanlari boʻyicha yakuniy attestatsiya sinovi quyidagi fanlarining mazmuniga asosan amalga oshiriladi:

1. Geografiya oʻqitish metodikasi fanining nazariy mashgʻulotlari mazmuni.

Geografiya oʻqitish metodikasi fanining maqsadi va vazifalari,geografiya taʼlimida ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish

Geografiya taʼlimi metodikasi ,geografiya taʼlimining maqsadi va vazifalari, geografiya taʼlimi metodikasining boshqa fanlar bilan aloqasi, geografiya taʼlimida ilmiy-tadqiqod ishlarini tashkil etish usullari.

Geografiya ta'limini va rivojlanish tarixi

Qadimgi davrda geografiya taʼlimining rivojlanishi,oʻrta asrlarda geografiya taʼlimining rivojlanishi,buyuk geografik kashfiyotlar bosqichi,Ilmiy geografik tadqiqotlar davrida geografiya taʼlimining rivojlanishi,xorijda geografiya taʼlimi.

Oʻzbekistonda geografiya taʼlimining rivojlanishi

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida geografiya taʼlimining rivojlanishi, XX asrda geografiya taʼlimining rivojlanishi, mustaqillikdan soʻng geografiya taʼlimining rivojlantirilishi,

“Ta’lim to’g’risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning qabul qilinishi, DTSning maqsad va vazifalari.

Maktab geografiyasining mazmuni, tarkibi

Maktab geografiyasining maqsadi, mazmuni, tarkibiy tuzilishi, maktab geografiyasi kursi mazmunidagi o’zgarishlar, boshlang’ich ta’limda geografiya ta’limi mazmuni, tabiiy geografiya maqsad va vazifalari, iqtisodiy geografiya kursining maqsad va vazifalari

Geografiya o’qitishning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari

Maktab geografiya kursining ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini, ularni mavzu mazmuniga mos ravishda tanlash yo’llari.

Geografiya ta’limi metodlari, mashg’ulot mazmuniga ko’ra o’qitish metodlarini tanlash

Geografik tushunchalar, ularning turlari va shakllanishi, geografiya ta’limida o’qivchilarning bilish faoliyatini faollashtirish; geografiya ta’limi metodlari, geografiya ta’limi metodlari: o’qitishning og’zaki metodlari, kuzatish va tajriba, muammoli o’qitish metodlari, pedagogik texnologiyalar, kartografik texnologiyalar va ulardan geografiya ta’limi jarayonida foydalanish yo’llari.

O’qitish vositalari

O’qitish vositalari va ularning ahamiyatini, geografiya darsligi, tasvirli qo’llanmalar, natural qo’llanmalar geografik rasmlar, statistik ma’lumotlar va ulardan foydalanish yo’llari bilan tanishish. Maktab geografiya xonasi va geografiya maydonchasini tashkil etish, o’quv qurollarini tayyorlash. Ta’limning texnik vositalari va axborot texnologiyalarining geografiya ta’limidagi ahamiyati.

Geografiya ta’limini tashkil etish shakllari

Dars va uning tarkibiy qismlari, darsning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini ishlab chiqish, darsga qo’yiladigan talablar, geografiya darslarining tuzilishi, dars tiplari va ulardan foydalanish yo’llari, tahlil qilish, darslarni rejalashtirishni, o’qituvchining darsga tayyorgarligi.

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro’yxati **Asosiy adabiyotlar**

1. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонуни. Тошкент.: 1997
2. Курбонниёзов Р. География таълими методикаси. Тошкент.: Университет, 1992

Qo’shimcha adabiyotlar

1. Абдиева З.А. География фанида ноанъанавий дарс усулларида фойдаланиш. Навоий., 2003.
2. Максаковский В.Т. Географическая культура. М. Просвещение, 2001.

Elektron ta’lim resurslari

- | | | |
|---|---|---|
| 1. www.ziyonet.uz | 2. www.nuu.uz | 3. www.connect.uz |
| 4. www.gov.uz | 5. www.uz.wikipedia.org | 6. www.qarshidu.uz |

2. Meteriklar va okeanlar tabiiy geografiyasi fanining nazariy mashg'ulotlari mazmuni.

Yevrosiyo

Materikning asosiy xususiyatlari, maydonining kattaligi, shimoldan janubga cho'zilganligi va shimoliy yarim shardagi barcha geografik mintaqalarning namoyon bo'lganligi. Relyefining juda xilma-xilligi va murakkabligi, quruqlikning eng baland va past nuqtalarining shu materikda joylashganligi. Siyosiy haritasi va asosiy xalqlari. Materikning shakllanish tarixi. Qadimgi platformalar, kaledon, gersin, kimmeriy, lamariy va alp burmalanish bosqichlarida hosil bo'lgan geologik tuzilmalar va ularning relefda aks etishi. Relefining asosiy shakllari: platformadagi tekisliklar va yassi tog'lar, burmali va burmali-palaxsali tog'lar, palaxsali va palaxsali-burmali tog'lar, akkumlyativ tekisliklar, vulqon mintaqalari. Foydali qazilmalari. Iqlim hosil qiluvchi omillari. Ichki suvlari. Geografik mintaqalari.

Yevropa qit'asi

Yevropa qit'asining chegaralari, o'lchamlari. Asosiy xususiyatlari, kuchli parchalanganligi, mo'tadil va subtropik mintaqalarning g'arbiy okean bo'yi sektorida joylashganligi. Landshaftlarning inson tomonidan kuchli o'zlashtirilganligi. Shakllanish tarixi. Sharqiy Yevropa platformasi. Geologik rivojlanishining asosiy xususiyatlari va ularning relefda va landshaftlarda aks etishi. Relefnig asosiy xususiyatlari: platforma plitasidagi tekisliklar. Orogen oblastlar relefi, tog' oldi va tog' oralig'i tekisliklari, o'rta okean relefi (Islandiya). Foydali qazilmalari va ulardan foydalanish. Iqlimi va ichki suvlari. Iqlim hosil qiluvchi omillar. Dengiz iqlimining hukmronligi, g'arbiy shamollar ta'sirida ekanligi. Iqlim mintaqalari, agroiqim resurslari. Iqlimning g'arbdan sharqqa tomon quruqlashib borishi. Iqlim va relefnig ichki suvlarining hosil bo'lishiga ta'siri. Daryolari va ularning turlari. Ko'llari va yer osti suvlari. Muzliklar. Tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosining shakllanishidagi asosiy omillar. Tuproq va o'simliklarining asosiy turlari va ularning tarqalishi. Yer va o'rmon boyliklari, ularni o'zlashtirish. Geografik mintaqalari va zonalar. Ularning tuzilishi, tarkibi va shakllanishi. Balandlik mintaqalari. Antropogen landshaftlar. Tabiiy muhitning ifloslanishi. Tabiiy geografik rayonlari: Arktika va subarktikaning Yevrosiyo sektori, Shimoliy Yevropa, G'arbiy Yevropa, O'rta dengiz sohili, Old Osiyo tog'ligi va Kavkaz, ularning tabiiy geografik tavsifi.

Osiyo qit'asi

Asosiy xususiyatlari. Shakllanish tarixi. Sibir, Xitoy, Arabiston va Hindiston platformalarining o'ziga xos xususiyatlari. Geologik tuzilmalarining relefdagi aks etishi. Qadimgi va hozirgi muzlik oblastlari. Foydali qazilmalari va ularning joylanish qonuniyatlari. Relefi. Asosiy relef shakllari: platformadagi tekisliklar, balandliklar, ko'tarilgan va yoshargan tog'lar. Vulkan (trapp) yuzalari. Burmali tog'lar relefi. Tog' oldi akkumulyativ botiqlari. Iqlimi. Iqlim hosil qiluvchi omillari. Qit'aning kattaligini, qiyofasini va yirik relef shakllarining iqlim hosil bo'lishidagi ahamiyati. Havo massalarining harakatlari. Harorat va namlikning hamda yong'inlarning taqsimlanishi. Iqlim mintaqalari, sektorlari va oblastlari. Ichki suvlari. Hind, Tinch, Atlantika, Shimoliy Muz okeani va ichki havzada oqimning va gidrografik to'ring hosil bo'lish omillari. Daryolar va ularning to'yinishi, ko'llar va ularning kelib chiqishiga ko'ra turlari. Yer osti suvlari va ulardan xo'jalikda foydalanish. Suv boyliklari, ularning ifloslanishi va muhofaza qilish masalalari. O'simligi, tuprog'i va hayvonot dunyosi. Hosil bo'lish omillari, o'simlik va tuproq turlari. Inson xo'jalik faoliyatining o'simlik, tuproq qoplami va hayvonot dunyosiga ta'siri. Geografik mintaqalari va zonalar. Landshaftlarning inson tomonidan o'zlashtirilishi. Hozirgi landshaft turlari. Tabiiy geografik rayonlari: Shimoliy Osiyo, Markaziy Osiyo, Sharqiy Osiyo, Janubiy Osiyo, Janubiy-Sharqiy Osiyo, Janubiy-G'arbiy Osiyo, ularning tabiiy geografik tavsifi.

Shimoliy Amerika

Tabiiy geografik xususiyatlari. Shakllanish tarixi. Materikning tarkib topishidagi asosiy bosqichlar. Shimoliy Amerika platformasi, Kaledon, Gersin, Kimmeriy, Laramiy va Alp burmalanish oblastlari va ularning relefda aks etishi. Foydali qazilmalarining joylanish qonuniyatlari va ulardan foydalanish darajasi. Relefi. To'rtlamchi davr muzliklarining relef shakllarini hosil bo'lishidagi ahamiyati. Asosiy relef shakllari va ularning ta'rifi. Iqlimi. Iqlimni hosil qiluvchi omillari. G'arbiy shamollarning xukmronligi. Okeanlarning materik iqlimiga ta'siri. Iqlimning fasllar bo'yicha almashinishi. Iqlim mintaqalari va ularning ta'rifi. Ichki suvlari. Asosiy havzalar. Daryo turlari, yirik daryolar ta'rifi. Ko'llar va ularning kelib chiqishi. Suv boyliklari va ulardan foydalanish. O'simligi, tuprog'i va hayvonot dunyosi. O'simliklarning kelib chiqish markazlari va hozirgi o'simlik qoplami hosil bo'lishi. Tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosining tarqalish qonuniyatlari. O'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish masalalari. Milliy bog'lar, qo'riqxonalar va alohida qo'riqlanadigan joylar. Geografik mintaqalar va zonalar, ularning ta'rifi, materikning sharqiy qismidagi geografik zonalarining meridional almashinishi. Kordilera tog'laridagi balandlik mintaqalari. Landshaftlar va ularning inson tomonidan o'zlashtirilishi. Tabiiy geografik rayonlari: Arktika va subarktikaning Amerika sektori, Sharq tabiiy geografik rayoni, G'arb tabiiy geografik rayoni, Markaziy Amerika rayoni, ularning tabiiy geografik tavsifi.

Janubiy Amerika

Geografik joylanishi, qiyofasi, o'lchamlari va tabiatining asosiy qirralari, Shimoliy Amerika materigi bilan o'xshashligi va farqlari. Tarkib topishi, relefi va foydali qazilmalari. Janubiy Amerika platformasi. Kaledon, gersin, mezozoy va alp burmalanish oblastlari. Relefining asosiy xususiyatlari va shakllari. Sharqiy qismidagi yassi tog'lar va tekislik hamda pasttekisliklar. And burmalanish oblasti morfologiyasi. Platforma va burmali oblastlarda hamda botiqlarda foydali qazilmalarning joylanish va tarqalish qonuniyatlari. Iqlimi va ichki suvlari. Iqlim hosil qiluvchi omillari. Relefining materik iqlimini hosil bo'lishidagi o'rni va ahamiyati. Yoz va qish iqlimlarining o'ziga xos xususiyatlari. Harorat, yog'in va namlikning taqsimlanishi. Iqlim mintaqalari va ularning ta'rifi. Ichki suvlarining hosil bo'lishi. Amazonka va Parana daryolari ta'rifi. Ko'llarva ularning turlari, baland tog' ko'llari, yer osti suvlari. Suv boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish muammolari. Tuproq, o'simlik qoplami va hayvonot dunyosi ning asosiy xususiyatlari. Tuproq turlari, zoogeografik oblastlari. Geografik mintaqalari va zonalar. And tog'laridagi balandlik mintaqalari. Tabiiy geografik o'lkalari: Sharq tabiiy geografik rayoni, And tog'lari yoki G'arb tabiiy geografik rayoni, ularning tabiiy geografik tavsifi.

Afrika

Materik tabiatining, joylanishining asosiy qirralari (kam parchalanganligi, tropik kengliklarda joylashganligi, ekvatorga nisbatan deyarli simmetrik joylashganligi). Shakllanish tarixi, relefi va foydali qazilmalari. Afrika platformasining tuzilishi va uning relefda aks etganligi, baland va past Afrika. Shimoliy Afrika cho'llarida asosiy relef hosil qiluvchi omillar. Buyuk Afrika yoriqlari va ularning relef hosil bo'lishidagi o'rni. Paleozoy va Alp burmalanish oblastlari va ularning relefda aks etishi. Rudali foydali qazilmalarning Baland Afrikada, neft, gaz, fosfarit konlarining past Afrikada joylashganligi. Iqlimi va ichki suvlar. Iqlim hosil qiluvchi omillari. Atmosfera harakatlarining asosiy xususiyatlari. Yoz va qish iqlimi, harorat, namlik va yog'inning taqsimlanishi. Iqlim mintaqalarining takrorlanishi (ekvatoril mintaqadan tashqari). Neogen va to'rtlamchi davrda oqim yo'nalishlarining o'zgarishi, oqimlarning hosil bo'lish omillari. Daryolarning to'yinishi va turlari. Yirik daryolari. Cho'l jarayonlarining asosiy xususiyatlari. Ko'llari va ularning asosiy xususiyatlari. Cho'llarning yer osti suvlari va ulardan foydalanish. O'simligi, tuprog'i va hayvonot dunyosi. O'simligining asosiy turlari, ularning hosil bo'lish omillari, tarqalish qonuniyatlari. Faunistik oblastlari, hayvonot dunyosining o'ziga xos

xususiyatlari. Tuproqlari va ularning hosil bo'lish jarayoni. Cho'llanish muammosi va uni yechish yo'llari. Asosiy qo'riqxonalari. Geografik mintaqalari va zonalari. Ularning ekvatorning har ikki tomonida takrorlanishi, tavsifi. Tabiiy geografik rayonlari: Shimoliy Afrika (Atlas, Saxroi Kabir, Sudan), Markaziy Afrika (Kongo botig'i, Gvineya sohili), Sharqiy Afrika (Efiopiya tog'ligi, Sharqiy Afrika yassi tog'lari), Janubiy Afrika (Janubiy Afrika yassi tog'ligi, Kaap tog'ligi, Madagaskar), ularning tabiiy geografik tavsifi.

Avstraliya

Janubiy yarim sharda joylashganligi, o'lchamlari, o'ziga xos xususiyatlari. Tarkib topish tarixi, relefi va foydali qazilmalari. Avstraliya platformasining tuzilishi va uning relefda aks etganligi (G'arbiy Avstraliya yassi tog'ligi, Markaziy tekislik), poleozoy burmalanish mintaqasi (Sharqiy Avstraliya tog'lari). Hozirgi vaqtdagi relef hosil qiluvchi omillari, rudali foydali qazilmalari, oltin mintaqasi, neft-gaz va ko'mir havzalari. Iqlimi va ichki suvlari. Iqlim hosil qiluvchi omillari, atmosfera harakatlarining markazlari. Namlik va yog'inning notekis taqsimlanishi, iqlim mintaqalari va turlari. Daryolarning faqat yomg'irdan to'yinishi, «Kriklar», sho'r ko'llar, yer osti suvlari (artezian havzalari). O'simligi, tuprog'i va hayvonot dunyosi. O'ziga xos xususiyatlari yuqoriligining asosiy sabablari. Turlarga kambag'alligi. Sodda sut emizuvchilarning ko'pligi. Ko'p sut emizuvchi hayvonlarning xaltasimonligi. Geografik mintaqalari va zonalari. Tropik mintaqalari landshaftlarining tarqalganligi, Sharqiy Avstraliya tog'ining sharqiy qismida geografik zonalarning joylanishi.

Tabiiy geografik o'lkalari. Shimoliy Avstraliya, Sharqiy Avstraliya, G'arbiy Avstraliya, Markaziy tekislik va Janubi-g'arbiy Avstraliya, Janubi-sharqiy Avstraliya, Tasmaniya, ularning tabiiy geografik tavsifi

Okeaniya

Geografik joylanishi. Tabiatining asosiy qirralari. Okean ta'siridagi landshaftlarning keng tarqalganligi. Geologik tuzilishi va relefi. Mezozoy va Kaynazoy burmalanish mintaqalari va Janubiy-G'arbiy Okeaniya orollarining hosil bo'lishi. Vulkanlarning otilishi. Meloneziya, Mikroneziya va Poleneziya orollarining hosil bo'lishi. Tropik mintaqalarda okean satxining o'zgarishi va marjon orollarining hosil bo'lishi. Asosiy relef shakllari. Foydali qazilmalari. Iqlimi va ichki suvlari. Okean iqlimi. Xavo massalari va ularning harakati, harorat, yog'inlar, tropik siklonlar. Daryolar va ularning asosiy xususiyati (qisqaligi, asosan yomg'irdan to'yinishi, sharshara va ostonalarning ko'pligi va x.k.). Ko'llari, yer osti suvlari. Tuproq, o'simlik qoplami va hayvonot dunyosi. Tuproqlar va o'simliklarning asosiy turlari. Nam tropik mangra o'rmonlari. Savannalar. Hayvonot dunyosining o'ziga xos xususiyatlari. Tabiiy geografik o'lkalari: Melaneziya, Mikroneziya, Poleneziya va Yangi Zelandiya, ularning tabiiy geografik tavsifi.

Antarktida

Janubiy qutb doirasida joylashgan yagona materik. Tabiatining asosiy qirralari, o'lchamlari. Shakllanish tarixi, Antarktida materigi. Paleozoy burmalanish mintaqasi. Muz usti va osti relefi. Muzning qalinligi, muzning turlari, shelf muzliklari. «Vohalar». Iqlimining o'ziga xos xususiyatlari. O'simlik va hayvonot dunyosi. G'arbiy Antarktida, Sharqiy Antarktida, ularning tabiiy geografik tavsifi.

Dunyo okeani

Okeanlar tabiiy geografiyasining maqsadi va vazifalari, boshqa fanlar bilan aloqasi. Dunyo okeani tushunchasi. Dunyo okeani tabiatining asosiy xususiyatlari.

Okeanning birlamchiligi, ikkilamchiligi va litosfera plitalari tektonikasi nazariyalari. Okean tagi relefining asosiy shakllari, okean tagi yotqiziqlari.

Dunyo okeanining iqlimi va suv massalari. Iqlim hosil qiluvchi omillar. Doimiy va mavsumiy past va baland atmosfera bosimi markazlari, doimiy shamollar. Suvning shoʻrligi va harorati. Suv massalari va ularning harakati. Okeandagi hayot. Okean mavjudotlarining geologik faoliyati. Dunyo okeani biotsenozlari va biogeografik oblastlari.

Dunyo okeanining geografik mintaqalari. Suv yuzasidagi va okean tubidagi geografik mintaqalar. Okean tabiatini muhofaza qilish.

Regional birliklari: Tinch, Atlantika, Hind va Shimoliy Muz okeani. Okeanlarga umumiy tabiiy geografik taʼrif.

Tinch okeani

Tinch okeanning geografik oʻrni. Tabiiy sharoiti, tabiiy resurslari. Okean osti relyefining tuzilishi. Relyef shakllari. Suv osti tizmalari, botiqlar, choʻkmalar. Tinch okeanning materiklarga taʼsiri. Tinch okean iqlimi. Iqlim mintaqalarining shakllanishi. Tinch okeandagi orollar va ularning shakllanishi, turlari. Tabiat zonalari. Oʻsimliklar va hayvonot dunyosi geografiyasi. Tinch okean tabiiy resurslarini muhofaza qilish.

Atlantika okeani

Atlantika okeanining geografik oʻrni. Tabiiy sharoiti, tabiiy resurslari. Okean osti relyefining tuzilishi. Relyef shakllari. Suv osti tizmalari, botiqlar, choʻkmalar. Atlantika okeanining materiklarga taʼsiri. Atlantika okeani iqlimi. Iqlim mintaqalarining shakllanishi. Atlantika okeanidagi orollar va ularning shakllanishi, turlari. Tabiat zonalari. Oʻsimliklar va hayvonot dunyosi geografiyasi. Atlantika okeani tabiiy resurslarini muhofaza qilish.

Hind okeani

Hind okeanining geografik oʻrni. Tabiiy sharoiti, tabiiy resurslari. Okean osti relyefining tuzilishi. Relyef shakllari. Suv osti tizmalari, botiqlar, choʻkmalar. Hind okeanining materiklarga taʼsiri. Hind okeani iqlimi. Iqlim mintaqalarining shakllanishi. Hind okeanidagi orollar va ularning shakllanishi, turlari. Tabiat zonalari. Oʻsimliklar va hayvonot dunyosi geografiyasi. Hind okeani tabiiy resurslarini muhofaza qilish.

Shimoliy muz okeani

Shimoliy Muz okeanining geografik oʻrni. Tabiiy sharoiti, tabiiy resurslari. Okean osti relyefining tuzilishi. Relyef shakllari. Suv osti tizmalari, botiqlar, choʻkmalar. Shimoliy Muz okeanining materiklarga taʼsiri. Shimoliy Muz okeani iqlimi. Iqlim mintaqalarining shakllanishi. Shimoliy Muz okeanidagi orollar va ularning shakllanishi, turlari. Tabiat zonalari. Oʻsimliklar va hayvonot dunyosi geografiyasi. Shimoliy Muz okeani tabiiy resurslarini muhofaza qilish.

Tavsiya etilgan adabiyotlar roʻyxati **Asosiy adabiyotlar**

1. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. (Олий Ўқув юртлари география талабалари учун ўқув қўлланма). Тошкент, Ўқитувчи. 1996
2. Баратов П, Маматқулов М, Рафиқов А. Ўрта Осиё табиий географияси. (Ўқув қўлланма) Тошкент, Ўқитувчи. 2002.
3. Пригула.Т.Ю., Ерёмина.В.А, Спрялин.А.Н. Физическая география материков и океанов. М.: Владос ИМПЭ им.А.С.Грибоедова.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Баратов П. Ўрта Осиё дарёлари. Ўқитувчи, Тошкент, 1992.
2. Баратов П. Ўзбекистон табиий географиясидан амалий машғулотлар. Тошкент, “Чўлпон”, 2005.
3. Баратов П, Соатов А. Умумий табиий география. Тошкент, “Ўқитувчи”, 2002.
4. Сабитова Н.И. Саидкаримова З. Дунёнинг табиий географияси ва топография асослари. Тошкент, Университет, 2007.

Elektron ta'lim resurslari

- | | | |
|---|---|---|
| 1. www.ziyonet.uz | 2. www.nuu.uz | 3. www.connect.uz |
| 4. www.gov.uz | 5. www.uz.wikipedia.org | 6. www.qarshidu.uz |

3. Jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi fanning nazariy mashg‘ulotlari mazmuni.

Dunyoning hozirgi siyosiy kartasi

Dunyoning hozirgi siyosiy kartasi. Dunyo siyosiy kartasining shakllanish bosqichlari. Dunyo siyosiy xaritasidagi o'zgarishlar.

Dunyo mamlakatlarining turlari, ularni turkumlashtirish. Rivojlangan mamlakatlar, ularning jahon taraqqiyotidagi ahamiyati va o'rni. Jahonning rivojlanayotgan mamlakatlari, ularning xalqaro maydondagi ahamiyatning ortib borishi.

Jahon tabiiy resurslari

Kishilik jamiyati bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlarning tarixiy xususiyatlarga ega ekanligi, jamiyat va tabiat o'zaro ta'sirining hozirgi davrdagi murakkablashuvi. Jahon yoqilg'i, rudali qazilmalarning materiklar va mamlakatlar bo'yicha geografik taqsimlanishining xususiyatlari. Yer va suv resurslarining butun dunyo va ayrim regionlar bo'yicha geografik taqsimlanishining xususiyatlari.

Dunyo okean resurslari: mineral, energetika va biologik resurslar. Dunyo okeani energetikava xom ashyo resurslaridan oqilona foydalanishning xalqaro muammolari. Rekreatsiya resurslari, ularning ayrim materiklar va mamlakatlar miqyosida taqsimlanishi hamda ulardan oqilona foydalanish.

Atrof muhit, insonning tabiatga ta'siri va uning sabablari, hozirgi zamon ekologik muammolari, ularni hal etish yo'llari.

Dunyo aholisi

Dunyo aholisining tadrijiy o'sishi. “Demografik portlash” tushunchasi, uning vujudga kelish sabablari. “Demografik tanglik”ni yuzaga keltiruvchi omillar. Mehnat resurslarining soni, sifati va “uchinchi dunyo” mamlakatlaridagi ishsizlikning kuchayishi.

Yer shari aholisining joylashuvi. Jahon urbanizatsiyasi va uning xususiyatlari. Dunyo aholisining milliy tarkibi. Yer kurrasi va ayrim regionlardagi etnik jarayonlarning turlari. Jahondagi yirik dinlar, aholining diniy tarkibi. Jahon aholisining o'sishi, oziq-ovqat muammosi.

Jahon iqtisodiyoti

Jahon xo'jaligi. Xalqaro geografik mehnat taqsimotining shakllanishi. Jahon xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanish qonuniyatlari va xususiyatlari. Dunyo mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishning notekisligi.

Jahon sanoati

Jahon sanoatining moddiy ishlab chiqarishdagi ahamiyati. Sanoat rivojlanishidagi hududiy farqlar, sanoatning ishlab chiqarish va hududiy tarkibiga ta'sir qiluvchi omillar.

Fan texnika taraqqiyotining sanoat rivojlanishi va joylanishidagi ahamiyati, energetika, metallurgiya, oziq-ovqat sanoatning regional va ayrim mamlakatlar bo'yicha rivojlanishi.

Jahon qishloq xo'jaligi

Agrar munosabatlar geografiyasi, fan texnika taraqqiyotining qishloq xo'jaligi geografiyasiga ta'siri. Jahonning yirik regionlaridagi dehqonchilik va chorvachilik geografiyasining asosiy xususiyatlari.

Jahon transporti va tashqi iqtisodiy aloqalar

Transportning moddiy boylik ishlab chiqarishdagi roli. Tashqi savdo yuklarini tashishdagi xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishdagi roli. Dunyo iqtisodiy aloqalarning o'zaro bog'liqligi ularning shakllari, tashqi savdo-xalqaro geografik mehnat iqtisodini ifodalovchi shakl sifatida jahon xo'jaligidagi tashqi iqtisodiy aloqalarning yangi yo'nalishlari va shakllari.

Yevropa Ittifoqi davlatlari

Yevropa Ittifoqi davlatlari: siyosiy geografik o'rni, tarixiy shakllanish xususiyatlari. Yevropadagi siyosiy vaziyatning hozirgi davrda tubdan o'zgarganligi. Yel davlatlarining jahon iqtisodiyoti va siyosatidagi o'rni va roli. Aholisi xususiyatlari, mehnat resurslari, zichligi, urbanizatsiya darajasi. Sanoati tarmoqlari, qishloq xo'jaligi, transporti, tashqi aloqalari, eksport darajasining yuqoriligi.

Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya iqtisodiyotining umumiy tavsifi.

Taraqqiyotning o'xshashligi, monopoliyaning hukmronlik holati.

G'arbiy Yevropa mamlakatlari

Mintaqa davlatlari geografiyasi, demografik vaziyat. Xo'jaligi. Sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlari geografiyasi. G'arbiy Yevropaning iqtisodi yuqori rivojlangan kichik davlatlari, GFR, Fransiya Respublikalari iqtisodiy va siyosiy geografik joylanishi, iqtisodiy taraqqiyotining umumiy tavsifi. Tabiiy resurslari, aholisi, uning tarkibi, urbanizatsiya darajasi. Xo'jaligi. Sanoat tarmoqlari, qishloq xo'jaligi, transporti, tashqi aloqalari.

Shimoliy Yevropa mamlakatlari

Shimoliy Yevropa mamlakatlari tarkibi. Iqtisodiy va siyosiy geografik o'rni. Tabiiy resurslari. Aholisi, milliy tarkibi, demografik holati. Urbanizatsiya darajasi. Xo'jalik tarmoqlari. Sanoati, qishloq xo'jaligi. Transporti. Tashqi iqtisodiy aloqalari. Eksport va importi.

Janubiy Yevropa mamlakatlari

Janubiy Yevropa mamlakatlari tarkibi. Iqtisodiy va siyosiy geografik o'rni. Tabiiy resurslari. Aholisi, milliy tarkibi, demografik holati. Urbanizatsiya darajasi. Iqtisodiyot tarmoqlari. Sanoati, qishloq xo'jaligi. Transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari. Eksport va importi.

Italiyaning iqtisodiy va siyosiy geografik joylanishi, iqtisodiy taraqqiyotning umumiy tavsifi. Tabiiy resurslari, aholisi, uning tarkibi, urbanizatsiya darajasi. Iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishi. Sanoat va qishloq xo'jalik tarmoqlari. Transporti, tashqi aloqalari.

Sharqiy Yevropa davlatlarining iqtisodiy geografik tavsifi

Sharqiy Yevropa mamlakatlari tarkibi. Iqtisodiy geografik o'rni xususiyatlari Sotsialistik tizimidagi sobiq mamlakatlar, ularning jahon taraqqiyotidagi ahamiyati va o'rni .tabiiy resurslari. Aholisi, iqtisodiyot tarmoqlari. Transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari.

Rossiya Federatsiyasi. Iqtisodiy geografik o'rning xususiyatlari, siyosiy geografik vaziyati. Tabiiy resurslari ichda mineral resurslar bilan ta'minlanganligi, xilma-xilligi va ularning joylanishi. Demografik vaziyat. Rossiya sanoat tarmoqlari, qishloq xo'jaligi. Rossiyaning transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari. Rossiya iqtisodiy rayonlari. Rossiyaning iqtisodiy aloqalari eksport-import tarkibi.

Ukraina, Belarus va Moldava mamlakatlarining iqtisodiy geografik o'rni. Tabiiy resurslari, aholisi va mehnat resurslari. Davlat tuzumi va siyosiy partiyalari. Xo'jaligi, sanoat va qishloq xo'jaligi rivojlanishining asosiy omillari. Transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari.

Shimoliy Amerika mamlakatlarining iqtisodiy geografik tavsifi.

Shimoliy Amerika mamlakatlari. Shimoliy Amerika mamlakatlari iqtisodiy va siyosiy geografik ta'rifi.

AQSh iqtisodiy va siyosiy geografik o'rni. Tabiiy sharoiti va resurslari, uning xilma-xilligi. Aholisi va mehnat resurslari. demografik jarayonlar. Davlat tuzumi, ma'muriy hududiy bo'linishi. AQSh shtatlari. Iqtisodiyoti. Sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlari, transport tizimining xususiyatlari. Rekreasion resurslar va turizm. Tashqi iqtisodiy aloqalari, turli guruhdagi mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalari.

Kanada hududining kattaligi, iqtisodiy va siyosiy geografik o'rni, tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari. Aholisi va mehnat resurslari. Davlat tuzumi, tarixiy rivojlanish xususiyatlari. Iqtisodiyotiga umumiy tavsif.

Lotin Amerikasi davlatlari

Lotin Amerikasi davlatlari. Iqtisodiy va siyosiy geografik o'rni. Markaziy Amerika mamlakatlari. Meksika davlatining iqtisodiy geografik o'rni. Tabiiy resurslari. Aholisi. Davlat tuzumi. Iqtisodiyotiga umumiy tavsif, sanoati, qishloq xo'jaligi, transporti, tashqi iqtisodiy aloqalari.

Janubiy Amerika mamlakatlari. Braziliya davlati iqtisodiy va siyosiy geografik o'rni. Davlat tuzumi, ma'muriy bo'linishi. Tabiiy resurslari, aholisi, mehnat resurslari. Sanoati, qishloq xo'jaligi, transporti, tashqi iqtisodiy aloqalari.

Osiyo qit'asi subregionlari

Yangi sanoatlashgan davlatlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari. Osiyoning yangi sanoatlashgan davlatlari siyosiy xaritasi, iqtisodiy geografik o'rni. Tabiiy resurslarning xilma-xilligi. Aholisi va mehnat resurslari, urbanizatsiya darajasi. Iqtisodiyotining o'ziga xosligi, sanoat va qishloq xo'jaligi. Transporti.

Sharqiy Osiyo davlatlari

Sharqiy Osiyo davlatlarining iqtisodiy geografik o'rni, tabiiy resurslari, aholisi. Urbanizatsiya xolati. Zichlik. Sanoatlashgan yirik shaharlar geografiyasi. Xo'jaligi. Sanoat tarmoqlari, qishloq xo'jaligi va transporti.

Yaponiya

Yaponiya. Yaponiya iqtisodiy geografik o'rni, tabiiy resurslari. Mineral va xom ashyo resurslarini kambag'alligi. Aholisi, aholining joylanishi, urbanizatsiya darajasi. Davlat tuzumi,

ma'muriy hududiy bo'linishi. Iqtisodiyotining rivojlanish xususiyatlari. ITTning sanoat va qishloq xo'jaligiga joriy etilishi. Qishloq xo'jaligi va uning intensivligi. Transporti, eksport va import tarkibi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar bilan raqobati. Iqtisodiy rayonlari.

Xitoy Xalq Respublikasi

Xitoy Xalq Respublikasi. Iqtisodiy geografik o'rni: tabiiy resurslari, mineral xom ashyolari, agroiqlimining xilma-xilligi. Aholisi, demografik vaziyati. Davlat tomonidan olib bolrilayotgan demografik siyosat, urbanizatsiya xususiyatlari, ichki migratsiya. Davlat tuzumi. Iqtisodiyotning o'ziga xosligi, taraqqiyot darajasi. Sanoati, sanoat tarmoqlari ichida yoqilg'i-energetika sanoatining ustunligi, qishloq xo'jaligi, donli va texnika ekinlari geografiyasi. Transporti, tashqi iqtisodiy aloqalari, iqtisodiy rayonlari.

Koreya Respublikasi

Koreya Respublikasi va KXDRning iqtisodiy geografik va siyosiy geografik o'rni. Tabiiy sharoiti va resurslari. Aholisi va mehnat resurslari. Davlat tuzumi va ma'muriy bo'linmalari. Tarixiy rivojlanish xususiyatlari, sanoati, qishloq xo'jaligi, transporti, tashqi iqtisodiy aloqalari.

Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari

Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari. Tabiiy, iqtisodiy geografik o'rni, siyosiy geografik holati. Tabiiy resurslari. Demografik holati. Urbanizatsiya darajasi. Sanoati, qishloq xo'jaligi. Transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari. Eksport va importi.

Indoneziya. Iqtisodiy geografik o'rni. Tabiiy resurslari. Aholisi, demografik vaziyati, Urbanizatsiya xususiyatlari. Iqtisodiyotining o'ziga xosligi, taraqqiyot darajasi. Sanoati, qishloq xo'jaligi. Transporti, tashqi iqtisodiy aloqalari. Iqtisodiy rayonlari.

Janubiy Osiyo mamlakatlari

Janubiy Osiyo mamlakatlari. Tabiiy, iqtisodiy geografik o'rni, siyosiy geografik holati, tabiiy resurslari. Aholisi, tarkibi, demografik holati, urbanizatsiya darajasi, Sanoati, qishloq xo'jaligi, transporti, tashqi iqtisodiy aloqalari

Hindiston iqtisodiy geografik o'rni. Tabiiy resurslari, mineral xom ashyolari. Iqlimning xilma-xilligi, Aholisi, demografik vaziyati. Davlat tomonidan olib borilayotgan demografik siyosat, urbanizatsiya xususiyatlari, migratsiya holati. Iqtisodiyotning rivojlanish xususiyatlari, sanoati va qishloq xo'jaligi. Transporti, tashqi iqtisodiy aloqalari. Iqtisodiy rayonlari

Janubi-Garbiy Osiyo davlatlari

Janubi-Garbiy Osiyo davlatlari . Tabiiy va iqtisodiy geografik o'rni, xususiyatlari, siyosiy geografik holati. Tabiiy resurslari. Aholisi tarkibi, demografik holati, urbanizatsiya darajasi. Sanoati, qishloq xo'jaligi, transporti, tashqi iqtisodiy aloqalari .

Turkiya tabiiy va iqtisodiy geografik o'rni. Tabiiy resurslari. Aholisi va mehnat resurslari. Davlat tuzumi, ma'muriy bo'linmalari. Sanoat tarmoqlari, qishloq xo'jaligi, transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari.

Kavkaz orti davlatlarning iqtisodiy geografik o'rni, tabiiy resurslari. Aholisi, mehnat resurslari, davlat tuzumi. Kavkaz orti mamlakatlaridagi siyosiy vaziyat. Iqtisodiyotining rivojlanish xususiyatlari. Sanoat va qishloq xo'jaligi. Transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari.

Fors ko'rfazi davlatlari tarkibi. Iqtisodiy geografik o'rni, tabiiy resurslari bilan ta'minlanganlik holati. Aholisi. Davlat tuzumi, sanoat, qishloq xo'jaligi, transporti, tashqi iqtisodiy aloqalari. Musulmonlar dunyosida tutgan o'rni.

Avstraliya va Okeaniya davlatlari

Avstraliya va Okeaniya davlatlari. Tabiiy va iqtisodiy geografik o'rni. Tabiiy resurslari, aholisi urbanizatsiya darajasi. Sanoati, qishloq xo'jaligi, transporti, tashqi iqtisodiy aloqalari.

Afrika davlatlari

Afrika davlatlari tabiiy va iqtisodiy geografik o'rni, tarkibi. Tabiiy resurslari, aholisi, sanoat, qishloq xo'jaligi va transporti. Subregionlari.

Misir va JAR davlatlarining tabiiy va iqtisodiy geografik o'rni. Tabiiy resurslari. Aholisi va mehnat resurslari. Davlat tuzumi, ma'muriy bo'linmalari. Sanoat tarmoqlari, qishloq xo'jaligi, transporti tashqi iqtisodiy aloqalari.

Dunyoning global muammolari

Dunyoning global muammolari. Ularning yuzaga kelish sabablari. Turlari. Jahon davlatlari siyosiy hayoti va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.

(Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi uchun savollari ilova qilinadi)

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati Asosiy adabiyotlar

1. Алисов Б.Хореев А. Экономическая и социальная география мира.М.: “Просвещение”, 2001 г.
2. Асанов, М.Набихонов, И.Сафаров. Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси.Т.: “Ўқитувчи”, 1994 й.
3. Вахритинов В.А. va boshqalar. Jahon ijtimoiy va iqtisodiy geografiyasi. Т.:2008 у.
4. Ўзбекистон республикаси иқтисодиёти. Т.: “Ўқитувчи”, 1998 й.
5. Ўзбекистон Республикаси Энциклопедияси.Т.: “Ўқитувчи” , 1997 й.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Гладкий Ю.Н., Лавров С.Б. Глбальная география. – М.: Дрофа, 2004.
2. Родионова И.А. Экономическая и социальная география мира. – М.: Юрайт, 2012.
3. Социально-экономическая география зарубежного мира. – М.: Дрофа, 2001.

Elektron ta'lim resurslari

- | | | |
|---|---|---|
| 1. www.ziyonet.uz | 2. www.nuu.uz | 3. www.connect.uz |
| 4. www.gov.uz | 5. www.uz.wikipedia.org | 6. www.qarshidu.uz |

III. Mutaxassislik fanidan yakuniy davlat attestatsiyasini baholash mezonlari.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 1999 yil 8 iyundagi 194 sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Yakuniy baholash bosqichida “Yozma ish” usulini tadbiiq etish bo'yicha namunaviy Nizomga ko'ra, yozma ish usulida tashkil etiladi. Bunda “Yozma ish” ning hajmi 1000-1200 so'zgacha belgilanadi. “Yozma ish” ni o'tkazish uchun 3 soat vaqt beriladi.

“5110500 – Geografiya o'qitish metodikasi” ta'lim yo'nalishi yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarini baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Mutaxassislik fanlaridan tuzilgan har bir variant 5 tadan savolga ega. Shundan 1 ta savol Geografiya o'qitish metodikasi fanidan, 2 ta savol Meteriklar va okeanlar tabiiy geografiyasi fanidan va 2 ta savol Jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi fanidan tuzilgan.

Tuzilgan variantlardagi har bir savol 1-20 ballga baholanadi. Variantdagi jami savollarni baholash yig'indisi maksimum 100 ballni tashkil etadi.

OTMlarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi Nizom asosida talaba yozma ish natijalariga ko'ra 86-100 ball to'plasa a'lo bahoga, 71-85 ball to'plasa yaxshi bahoga va 55-70 ball to'plasa qoniqarli bahoga loyiq deb topiladi. Agar talaba yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari natijalariga ko'ra 54 va undan past ball to'plasa "qoniqarsiz" baholanadi. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarini o'tkazuvchi komissiya a'zolari bajarilgan ishning hajmi va sifatiga qarab ball qo'yadilar. Ballar qaydnomaga umumlashtirilib yoziladi.

IV. Mutaxassislik fanlaridan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari quyidagi mezon asosida baholanadi:

№	Baholash mezon	Ajratilgan ball
1	Xulosa va qaror qabul qilish	4,0 gacha
2	Ijodiy fikrlay olish	4,0 gacha
3	Mustaqil mushohada yurita olishi	3,0 gacha
4	Olgan bilimlarini amalda qo'llay olishi	3,0 gacha
5	Mohiyatini tushuna olishi	3,0 gacha
6	Tasavvurga ega bo'lishi	3,0 gacha
	jami	20 gacha

IV. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarini o'tkazish tartibi.

"5110500 – Geografiya o'qitish metodikasi" ta'lim yo'nalishi bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari yozma ish usulida tashkil etiladi, ushbu tartib OTM kengashi qarori asosida universitet rektori tomonidan tasdiqlanadi hamda yakuniy davlat attestatsiyasi boshlanishidan olti oy ilgari talabalar etiboriga havola etiladi. Talabalar yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari dasturi bilan ta'minlanadilar, ularga tayyorgarlik ko'rish va maslahatlar berish uchun zarur shart sharoitlar yaratiladi.

Mutaxassislik fanlaridan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlariga tegishli ta'lim dasturlarini to'liq tugatgan va o'quv rejasida nazarda tutilgan barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan talabalar qo'yiladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasiga kiritilgan barcha turdagi attestatsiya sinovlari bo'yicha talabaning o'zlashtirish ko'rsatkichlari reyting tizimiga muvofiq aniqlanadi hamda yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasining majlis bayoni belgilangan tartibda rasmiylashtirilgandan so'ng shu kunning o'zida e'lon qilinadi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlaridan o'tolmagan talaba uch yil ichida yakuniy davlat attestatsiyasiga qaytadan kiritiladi.

Uzrli sabablarga ko'ra yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlariga kelmagan talabalar rektorning buyrug'i bilan yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasining ishi yakunlanishiga qadar boshqa muddatlarda o'tkaziladigan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlariga kiritilishi mumkin.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari natijalaridan norozi bo'lgan bitiruvchi talabalar ariza bilan murojaat qiladilar. Ularning arizalarini ko'rib chiqish uchun rektor buyrug'i bilan apellyatsiya komissiyasi tuziladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarini o'tkazuvchi komissiya a'zolari shu ta'lim yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlovchi kafedralar professor - o'qituvchilari va iste'molchi korxonalarining etakchi mutaxassislari tarkibidan jalb etiladi.

V. Apellyatsiya tartibi

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari jarayonida qo'yilgan ballar (baho) dan norozi bo'lgan bitiruvchilar yakuniy davlat attestatsiyasi baholari e'lon qilingan kundan e'tiboran 24 soat muddat ichida apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilish xuquqiga egadir.

Apellyatsiya komissiyasi o'z xulosasini bitiruvchiga bir kun muddat ichida ma'lum qilishi lozim. Murojaat mazmuni faqat o'zining ball (baho)lari haqida bo'lsa qabul qilinadi, lekin boshqa holatlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

